



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

## XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMANI

## MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ  
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**БУХОРО - 2021**

### **Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси**

- О. Х.Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.
- О.С.Қаххоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Ў.У. Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ю.А. Пўлотова – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.

### **Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси**

- О.С.Қаххоров – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.
- Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ф.М.Қосимов – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Ғ.М.Сайфуллаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Н.Б.Адизова – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.
- Р.А.Қўлдошев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.
- Р.Х.Жумаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-фсонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2021 йил 1 апрель куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида **“Бошланғич таълимга рақамли технологияларни татбиқ этишнинг замонавий тенденциялари ва ривожланиш омиллари”** мавзусидаги халқароилмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

#### **Масъул муҳаррир:**

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

#### **Такризчилар:**

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор  
Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

# РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

**Обиджон Хамидов**

Бухоро давлат университети ректори

Айни кунларда бутун ер шари аҳолиси синовли кунларни бошдан ўтказмоқда. Коронавирус пандемияси глобал фожиага айланиб улгурди. Унинг таъсири, айниқса, таълимда яққол кўринмоқда. Барча, хусусан, таълим олувчи ҳам таълим берувчи ҳам карантин ҳолатида. Жонли, юзма-юз дарс бериш кўникмаларига ўрганган ўқитувчиларимиз бу вазиятда бир оз саросимага ҳам тушган десак, муболаға бўлмайди.

Мамлакатимизда рақамли иқтисодий фаол ривожлантириш, барча тармоқлар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалигида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, электрон ҳукумат тизимини такомиллаштириш, дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологияларининг маҳаллий бозорини янада ривожлантириш, республиканинг барча ҳудудларида ИТ-паркларни ташкил этиш, шунингдек, соҳани малакали кадрлар билан таъминлашни кўзда тутувчи 220 дан ортиқ устувор лойиҳаларни амалга ошириш бошланган.

Бундан ташқари, 40 дан ортиқ ахборот тизимлари билан интеграциялашган геопортални ишга тушириш, жамоат транспорти ва коммунал инфратузилмани бошқаришнинг ахборот тизимини яратиш, ижтимоий соҳани рақамлаштириш ва кейинчалик ушбу тажрибани бошқа ҳудудларда жорий қилишни назарда тутувчи “Рақамли Ўзбекистон” комплекс дастури амалга оширилмоқда.

Бу каби устувор вазифаларни амалга оширишда биринчи галда, ҳозирги ҳолатни ижобий йўналишга солиш ва ушбу вазиятни бир имконият сифатида қабул қилиши керак. Бойси, таълим экспертларининг хулосаларига қараганда коронавирустан пандемиясидан сўнг таълимнинг ривожланиш йўналишлари қайта кўриб чиқилади; таълимнинг янги даври – рақамли таълим даври бошланади.

Рақамли таълим масофа ва макон тўсиқларини олиб ташлайди. Ҳозирги шароитда Ўзбекистон таълим тизими қайси йўлдан кетиши тўғрисида бир қатор саволлар турибди. Хусусан, у ҳозирги анъанавий тизимни ривожлантирилган босқичга ўтадимми ёки рақамли таълим тизимига ўтадимми? Саволлар кўп. Ушбу саволларга қарамасдан таълим тизимида ҳеч қачон ўзгармайдиган асос, яъни устунлар мавжуд. Бу “таълим олувчи” ва “таълим берувчи” яъни “талаба” ва “ўқитувчи”дир. Агар таълимда ана шу икки томоннинг дунёқарашини ўзгартира олсак, яъни ўқувчини мустақил таълим олишга, билим олиш йўллари мустақил излашга, ўқитувчини эса янги билимлар билан рақамли технологиялар асосида қуроллантириб талабага билим олиш йўллари ўргатишини йўлга қўя олсак, таълим тизими қайси шаклга ўтишидан қатъий назар таълимда сифат пайдо бўлади. Ана шу масала мамлакатимиз таълим тизимининг энг оғриқли ва заиф нуқтаси ҳисобланади. Бу масалалар бўйича олий таълим тизими дунёнинг етакчи университетларидан ўрганадиган, ўзлаштирадиган жиҳатлар ниҳоятда кўп. Таълим

тизими ривожланган дунёнинг қатор давлатларида муайян курс бўйича дарслар Google Classroom платформасидан фойдаланган ҳолда амалга оширилмоқда.

Одатда, кенг омма “Google” тизимини асосан қидирув ва электрон таржимон сифатида танийди. Бироқ ушбу тизимнинг илм-фан, таълим учун фойдали имкониятлари ниҳоятда кенг. “Google” тизими таълимдаги масофа ва макон тушунчасини йўққа чиқаради. Сабаби унинг дастурлари дунёнинг қай чеккасида бўлмасин талаба ва педагогни бир вақтда ишлаш имкониятини яратади. Бу учун “gmail”дан электрон почта очишнинг ўзи кифоя қилади. “Google classroom”, “Google doc”, “Google disk” дастурлари бунда ёрдамга келади.

“Google classroom”- дастури синфхона вазифасини бажаради. Бунда педагог талабаларни рўйхатини тайёрлаш, вазифа бериш, топшириқ бажарилиши муддатини белгилаш, баҳолаш, фанга оид қўшимча маълумот бериш, турли хил мавзуга доир баҳслар уюштириш ва талабалар фикрини билишга эришиши мумкин.

“Google doc” дастури талабаларни мақола, курс иши, битирув-малакавий иши, тадқиқот иши, илмий лойиҳа тайёрлашда кўмак беради. Бунда талаба “Google doc” дастурида электрон ҳужжат яратади ва илмий раҳбари билан “gmail” орқали алоқага чиқади. Ушбу дастурнинг имконияти шундаки, бир пайтнинг ўзида ҳам талаба, ҳам педагог таҳрир қилиш, қўшимчалар киритиш имкониятига эга бўлади. Ҳаммуаллифликда илмий мақолалар ёзишда ҳам жуда қўл келади. Айниқса, ҳозирги кезде чет эллик ҳамкорлар билан ёхуд илмий раҳбар билан бевосита кўришиш имконияти чекланган шароитда бу дастур катта қулайлик яратади.

“Google disk” дастури маълумот сақлаш учун хизмат қилади. Дастур катта ҳажмдаги маълумотни сақлаш имкониятига эга. Бу дастур барчага бирдек қулай. Фойдаланувчилар ёзилган матнларни йўқотиш ва оғир китобларни кўтариб юришдан озод қилади. Кутубхонада ишлаб туриб керакли маълумотлар “Google disk”да сақланади ва зарурат туғилганда исталган ердан интернет воситасида юклаб олиш мумкин булади.

Юқорида келтирилган барча дастурлардан фойдаланилгандан сўнг, талабаларни амалга оширган вазифаларининг натижасини “E-Portfolio” саҳифасида кўрсатиш мумкин бўлади.

“E-Portfolio” ҳам “Google” имкониятларидан келиб чиққан ҳолда яратилади. “Google”да веб-сайт яратиш дастури ишлаб чиқилган бўлиб, у жуда қулай. Ҳозирги инфорацион технологиялар ривожланиб, жадаллашиб бораётган бир пайтда, ҳар бир шахс ўзининг ҳар соҳадаги фикрлари, қарашлари ва ютуқларини ўртоқлашиш мақсадида шу турдаги “E-Portfolio” яратса, унинг илмий, ижтимоий, фалсафий фаолиятидан барча бирдек баҳраманд бўлиши мумкин. Шу ўринда ёзувчи, қатор таълимий сайтлар муаллифи Марк Пренскининг “Digital Natives, Digital Immigrants” (“Рақамли дунё соҳиблари, рақамли дунё муҳожирлари”) номли мақоласида бугунги кун талабаларига қуйидаги таърифни беради: “Ҳозирда талабаларимиз батамом ўзгарган. Замонавий талабалар эндиликда биз ишлаб чиққан таълим тизимимизга кўра ўқитиладиган кишилар эмас”. Мақолада бугуннинг талабалари “Digital Natives” – “Рақамли дунё соҳиблари”– бугунги кунда компьютер, видео ўйинлари ва интернетнинг рақамли тилида ўз она тилидай сўзлашувчи ёшлар сифатида таъриф берилади. Таълим соҳаси вакиллари

Ўқитувчиларга эса “Digital Immigrants” – “рақамли дунё муҳожирлари” – рақамли, электрон дунёга мослашаётган, янги технологияларнинг кўпгина қирраларини энди қабул қилаётган кишилар сифатида баҳо берилади.

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛИ СИФАТИДА**

**Отабек Қаҳҳоров**

Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича  
проректори

**Рақамли иқтисодиёт** – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт ёки веб-иқтисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланади.

1995 йилда америкалик дастурчи Николас Негропонт “рақамли иқтисодиёт” терминини амалиётга киритди. Ҳозирда бу истилоҳни бутун дунёдаги сиёсатчилар, иқтисодчилар, журналистлар, тадбиркорлар – деярли барча қўлламоқда. 2016 йилда Бутунжаҳон банки дунёдаги рақамли иқтисодиётнинг аҳволи ҳақида илк марта маъруза эълон қилди (“Рақамли дивидендлар”).

Аввало, шуни айтиш жоизки, рақамли иқтисодиёт, бу — алоҳида фаолият тури эмас. Бу, аслида, ишбилармонлик, саноат объектлари, хизматлар деганидир. “Рақамли” атамаси мазкур соҳаларнинг барчаси ахборот технологияларидан фаол фойдаланишни англатади. Агар оддий иқтисодиётда моддий буюмлар асосий ресурс ҳисобланса, рақамли иқтисодиётда бу қайта ишланадиган ҳамда узатиладиган ахборот, маълумотлар бўлади. Уларнинг таҳлилидан сўнг тўғри бошқариш бўйича ечим ишлаб чиқилади.

Дарвоқе, “рақамли иқтисодиёт” атамаси миллий қонунчилигимизда илк бор қўлланилмоқда. Бироқ дунё тенденцияси шуни кўрсатаяптики, барча ривожланган давлатлар уни шакллантиришга аллақачон киришган. Зеро, биз глобаллашув, дунё ҳамжамияти билан интеграцияга киришиш ҳақида гапирарканмиз, бу борада ўзгарган (трансформация қилинган, янгиланган) иқтисодиёт равнақи муҳим саналади.

Яратилган махсус бошқарма иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарига автоматлаштирилган тизимларни жорий этиш билан шуғулланади. Бу йирик саноат объектлари иш самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқаришда ўсиш, фаолият шаффофлигини таъминлаш, маҳсулот таннархини камайтириш имконини беради.

Агар глобал нуқтаи назардан қаралса, бугун башарият жаҳон иқтисодиёти тармоқлари, инсонлар ҳаёти, турмуш асослари ўзгариши билан боғлиқ қизик даврни бошдан кечирмоқда. Бу барча технология, компьютерлар интернет орқали бир-бири билан боғланиб бораётгани ила изоҳланади. Маълумотларга қараганда, бугунги кунда қарийб беш миллиард қурилма бутунжаҳон “ўргимчак тўри”га уланган. Яқин беш йил ичида уларнинг сони йигирма миллиардга етиши кутилаётир.

Айни пайтда сунъий ақл ва когнитив интеллектуал тизимлар жадал тараққий топаяпти. Бунинг натижасида яқин келажакда айрим касблар ўз долзарблигини йўқотади ҳамда вақти келиб, йўқ бўлиб ҳам кетади. Мисол учун, “IoT” автоматлаштирилган тизими аллақачон синовдан ўтказиляпти. Пировардида роботлар автомобиль ҳайдовчилари, учувчилар ва ҳатто, ҳуқуқшуносларнинг ҳам ўрнини эгаллаши мумкин.

Келгусида механик ҳамда жисмоний меҳнат ўрнини робототехника эгаллаши кун сайин ойдинлашиб бораяпти. Шунинг учун стратегия ишлаб чиқиш, рақамли

“To‘g‘risini top o‘yini”. Bu o‘yinga ko‘ra o‘quvchilar misolni yechib to‘g‘ri javobni topib, to‘g‘ri chiziqqa qarata chiziq tortishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yinni arifmetik amallarning barcha turini o‘rganishda qo‘llash yaxshi samara beradi.

“Keyingisini top” o‘yini. Bu o‘yinning sharti shundan iboratki 1-yechilgan misolning javobi bilan boshlanuvchi misolni yechishi kerak. O‘yin shu qoida orqali misollar tugaguniga qadar davom etadi. Bu o‘yinni tuzishda o‘qituvchi oldindan tayyorgarlik ko‘radi. Taqdimot slaydi yoki oldindan tayyorlab kelingan material orqali o‘yinga start beriladi. Masalan:

$$15-7= 24-6= 8+16= 18:2= 9*4=$$

O‘quvchi 1-misolni yechadi  $15-7=8$ ; 8 bilan boshlanuvchi misolni yechadi  $8+16=24$  o‘yin shu tarzda davom etadi. O‘yin oxirida birinchi bo‘lib to‘g‘ri bajargan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘yin mazmunidagi misollardan foydalanish o‘quvchini fanga qiziqishini yanada orttiradi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Qosimov, M.Hakimova, N.Safarova. Boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatish. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015.
2. Ibrohimova M. Improving integration in teaching arithmetic practices in primary school mathematics. Учённый XXI Века ISSN 2020
3. M.Ibrohimova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarini online o‘tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashda yoshlarning o‘rni va roli 2020, 21-23betlap.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSALARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*U.Sh. Tog‘ayeva, BuxDU doktoranti  
G.N. Roziqova, BuxDU guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili darslarida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** axborot, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnik vosita, didaktik vosita, pedagogik mahorat, axborotli vosita.

**Annotation.** This article describes the importance of the use of pedagogical technologies in the teaching of mother tongue.

**Keys words:** information, technology, pedagogical technology, technical tool, didactic tool, pedagogical skills, information tool.

**Аннотация.** В статье обсуждается важность использования педагогических технологий на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** информация, технологии, педагогическая технология, технический инструмент, дидактический инструмент, педагогические навыки, информационный инструмент.



Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash, unga yangicha yondoshuvi, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Ona tili darslarida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yo'ki noto'g'riligi haqida va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi. O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "men"ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy -ijobiy tafakkuri ko'lami, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida, o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rgatadi. Bahs – munozara darsini samarali o'tkazish uchun o'quvchilar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishlari, uni yaxshi o'qib, o'rganib chiqqan bo'lishlari darkor.

Boshlang'ich ta'lim umum ta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli bu jarayonda o'quvchining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Shuningdek, multimedia usuli ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi; matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; "Inson - kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo'ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi; o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi; o'quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedia usuli ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi; matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi. "Inson – kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo'ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'z navbatida ularga ishonchli shakllantiradi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalb qilishni o'rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi.

Hozirgi kunda kelajagimizning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan farzandlarimizning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslar jarayonida pedagogik texnologiyalardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq. Bu pedagogik texnologiyalar ona tili darsi jarayonlarida o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi va fanni juda yaxshi o'zlashtiradi. Masalan, o'qituvchi doskaga "Shaxsni bildiruvchi so'zlar" nomli mavzuni yozganida o'quvchi bir ko'rishda uni tushunmaydi, ammo o'quvchiga ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnologiyasida tayyorlangan turli xil rasmlar ko'rgazmalarni ko'rsa o'quvchining xotirasida mavzu yanada mustahkamlanadi.

Hozirgi davr bolalari texnik asri farzandlari bo'lganligi bois ularga ko'proq va kengroq ma'lumot berish va pedagogik texnologiyalardan foydalanib darsni qiziqarli va tushunarli o'tish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev A.R. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Ped.fan.nom.dis. – T., 2005, 141 b.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev.M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: "Nihol", 2016.
3. Mavlonova.R.A, Raxmonqulova.N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi - T.: "Ilm-Ziyo", 2009. – 192 b.

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI

*F. N. Abdullayeva,  
BuxDU o'qituvchisi*

**Annotasiya.** Maqolada hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritilgan. Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtayi nazardan yondashishni ifodalaydi. Maqolada ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharxlarini izohlab berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya xususiyatlari, ijodiy tafakkur, tarbiya metodlari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические технологии, образовательная технология, технология обучения в области педагогики. Существует множество различных определений педагогической технологии, и каждое определение представляет собой подход с определенной точки зрения. В статье объясняются некоторые ключевые определения и их толкования.

**Ключевые слова:** технология, образовательная технология, педагогическая технология, особенности педагогической технологии, творческое мышление, методы обучения.

**Abstract.** The article discusses pedagogical technologies, educational technology, teaching technology in the field of pedagogy. There are many different definitions of pedagogical technology, and each definition represents an approach from a specific point of view. This article explains some of the key definitions and their interpretation.

**Key words:** technology, educational technology, pedagogical technology, features of pedagogical technology, creative thinking, teaching methods.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab

жараёнида мантикий фикрлаш ва баҳолашга ўргатиш	
<b>III ШЎБА</b> <b>ДАРСЛИКЛАРНИ ЯРАТИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ҚИЛИШ</b>	
<i>Назаренко Татьяна Геннадьевна.</i> Электронный учебник для школы: проблемы и перспективы создания	<b>104</b>
<i>Шатырко Лариса Алексеевна.</i> Психологические аспекты школьного учебника в контексте современных тенденций в системе образования	<b>107</b>
<i>Мишанова А. И.</i> Применение интерактивных технологий на уроках русского языка в начальной школе	<b>112</b>
<i>Jumayev R. X.</i> Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarining afzalliklari	<b>115</b>
<i>Olloqova O'. M.</i> Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	<b>119</b>
<i>Jumayev R. X., Elmurodova Sh.T.</i> Ona tili darsliklaridagi didaktik materiallarni yaratish va ularni takomillashtirish	<b>122</b>
<i>Qosimova M.M., Qosimov F.F.</i> Taqqoslashga doir topshiriqlar ustida ishlash texnologiyasi	<b>126</b>
<i>Жумаева М.А.</i> Педагогика фанини ўқитишда ўқитувчи инновацион фаолиятини ривожлантириш омиллари	<b>129</b>
<i>Adizova N.B., Xudoyberdiyeva H.</i> O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakllari	<b>132</b>
<i>Ashurova A. E., Davlatovna E. D.</i> Buxoroga bosmaxonalarning kirib kelishi ona-tili adabiyotimizni texnologik rivojlanish omili	<b>134</b>
<i>Qosimov F. M., Ibrohimova M. F.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida arifmetik amallarni qo'llashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	<b>137</b>
<i>Tog'ayeva U.Sh., Roziqova G.N.</i> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	<b>139</b>
<i>Abdullayeva F. N.</i> Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari	<b>141</b>
<i>Yusufzoda Sh.Y., Yusufzoda X.Y.</i> Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari	<b>144</b>
<b>IV ШЎБА</b> <b>БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШНИНГ МЕТОДИК ИМКОНИАТЛАРИ</b>	
<i>Сахновская Елена Геннадьевна.</i> Методологические проблемы внедрения конвергентного подхода в начальном образовании	<b>148</b>
<i>Намроев А. Р. Hasanova M. A. Toyirova N.</i> Birinchi sinf o'quvchilarida yozuv qurollaridan foydalanib, chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari	<b>152</b>
<i>Яценко Владимир Сергеевич.</i> География культуры игрушки как важный практический компонент интеграции начального образования	<b>155</b>
<i>Бабаева Ш.</i> Моделирование творческой деятельности учащихся при помощи проектированного обучения на уроках родного языка в начальных классах	<b>158</b>
<i>Жамилова Б.С.</i> Болалар китобхонлигини ташкил этишда педагогик таълим инновацион кластерининг самарадорлиги	<b>162</b>
<i>Джуроева Д. Ш.</i> Методические аспекты формирования творческой деятельности и развития творческих способностей учащихся в процессе решения задач	<b>166</b>
<i>Жумаев У.С.</i> Социокультурная среда и психологическое здоровье личности	<b>172</b>
<i>Узакова А.Б., Roxatova Z.I., Alimova A.H., Fazilova H.C. Babayeva Sh.B</i> Системный подход к обучению языку и методическая система речевого развития школьников	<b>177</b>
<i>So'fiboyeva G. M.</i> Kichik yoshli bolalarda geometrik fazoviy fikrlashni rivojlantirish uslubi	<b>181</b>
<i>Sariyev Sh.U.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda o'qish va ona tili darslarini integratsiyalashning metodik imkoniyatlari	<b>185</b>
<i>Cho'liyeva G.T., Siddiqova K.Q.</i> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan	<b>187</b>